RESEARCH ARTICLE

Shakespeare's Tragedy "Romeo And Juliet" On The Uzbekistan Stage: Modern Artistic Interpretations Of The Image Of Young Heroes

Rakhmonova Kamolakhon Amanullayevna
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Art Studies
Email: rahmonovakomola91@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3088-155X

Abstract

The article is devoted to modern interpretations of William Shakespeare's tragedy "Romeo and Juliet" on the Uzbek stage and is analyzed using the example of two performances staged in 2021 - the Karakalpak State Theater for Young Spectators (dir. A. Kudaynazarov) and the Uzbek State Drama Theater (dir. O. Salimov). The directorial and acting solutions in revealing the image of young heroes are analyzed using the example of two performances. Special attention is paid to the comparison of the tempo-rhythmic solutions of the two theaters and the role of secondary characters in revealing the idea of the work. It is concluded that, despite the differences in national stage traditions and language, both interpretations have preserved the artistic integrity of the tragedy and its universal significance in relation to modern social conflicts.

Keywords: Shakespeare, “Romeo and Juliet”, Uzbek theater, stage interpretation, young heroes, tragedy, directing, acting skills.

Annotatsiya

Maqola Uilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasining o‘zbek sahnasidagi zamonaviy talqinlariga bag‘ishlangan bo‘lib, 2021-yilda sahnalashtirilgan ikkita spektakl — Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri (rej. A.Kudaynazarov) va O‘zbek davlat drama teatri (rej. O.Salimov) spektakllari misolida tahlil qilinadi. Ikki spektakl misolida yosh qahramonlar obrazini ochishdagi rejissyorlik va aktyorlik yechimlari tahlil etiladi. Alohida e’tibor ikki teatrning temporitmik yechimlarini qiyoslashga hamda ikkinchi darajali obrazlarning asar g‘oyasini ochishdagi vazifasiga qaratilgan. Milliy sahna an’analari va tildagi farqlarga qaramay, ikkala talqin ham tragediyaning badiiy yaxlitligini va uning zamonaviy ijtimoiy ziddiyatlarga nisbatan umuminsoniy ahamiyatini saqlab qolgani xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: Shekspir, “Romeo va Julyetta”, o‘zbek teatri, sahna talqini, yosh qahramonlar, tragediya, rejissura, aktyorlik mahorati.

Kirish

O‘zbek teatrining Uilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasiga murojaati o'ziga xos tarixiy an’anaga ega: asar birinchi marta 1945-yilda rejissyor E.Amantov tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, bosh rollar ijrochilari A.Bakirov va Q.Burnasheva ijrosi o‘sha davr matbuotida yuksak baholangan. “Xipcha, o‘rta bo‘yli, beliga zarxal belbog‘cha tortilgan, qora plash kiygan, jingalak sochli Romeo–Bakirov

sahnada ohista va xayolchan paydo bo‘lardi. Aktyor Romeoni sevgisidan bolalarcha entikishini ham, hijron dardida yonishini ham alohida bo‘yoqdorlik bilan ko‘rsata olgan edi. “Romeo teatr talqinida qilichbozlikda qanday abjir va maftunkor yigitdir” deb yozdi, “Правда Востока” gazetasi 1945-yil 15-iyun sonida”[1].

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilida respublika teatrlaridagi spektakllar ancha maishiylashib, tomoshabin didi ortidan quvish avj olgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda o‘zbek teatrida klassik asarlarga qaytishni kuzatish mumkin. Teatr jamoalari aktyorlik mahoratlarini charxlash, repertuarni jiddiy va umrboqiy asarlar bilan boyitish maqsadida jahonning murakkab asarlariga qo‘l ura boshladi. Shekspir asarlarining nafaqat poytaxt, balki viloyat teatrlarida ham muvaffaqiyatli sahnalashtirilishi o‘zbek teatri rivojining yangi bosqichga ko‘tarilayotganining belgisi sifatida qabul qilindi.

Ushbu maqolaning maqsadi — 2021-yilda sahnalashtirilgan ikkita spektakl misolida “Romeo va Julyetta” tragediyasidagi yosh qahramonlar obrazining badiiy talqinini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek obraz xususiyatlarini ochishda qo‘llanilgan rejissyorlik va aktyorlik yechimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining spektakli (rejissyor Amangeldi Kudaynazarov, qoraqalpoq tiliga tarjima muallifi Uzaqbay Pirjanov) va O‘zbek davlat drama teatrining spektakli (rejissyor Olimjon Salimov) olindi, ikkalasi ham 2021-yilda sahnalashtirilgan. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semiotik va badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tarixiy-badiiy kontekst

Uilyam Shekspirning eng mungli va yoshlar haqidagi mashhur asarlaridan biri “Romeo va Julyetta” tragediyasi bir necha asrlardan beri o‘z qiymatini yo‘qotmay, dolzarbligi oshib borayotgan yoshlar haqidagi asarlardandir. Pyesaning yoshlar orqali butun dunyoga, millatlarga, davlatlarga, siyosatga aytar so‘zi bor. Shu tufayli ham bu asar to‘rt asrdan beri dunyo sahnalaridan tushgani yo‘q. Uni minglab sahna talqinlari mavjud.

Dunyo asli kurash ustiga qurilgan. Yaxshilik va yomonlik, yolg‘on va chin, nafs va poklik singari. Inson kurash orqali qabul qilishni, rozilikni va o‘zi uchun manfaatli ko‘p xulosalarni o‘rganadi. Shekspir asarlarini yana bir kuchi o‘ta keskin qarama-qarshilik, tugundan kulminatsiyaga borgan sari konflikt kuchayib, voqealar yanada keskinlashib, rivojlanib borishi bilan o‘quvchi va tomoshabin uchun qiziqarli tus olishi va sahnabopligidir. Takabbur va kibrli ikki oilaning kurashi haqidagi “Romeo va Julyetta” tragediyasi ham shunday yetuk kompozitsion qurilishga ega. Asar shu darajada mashhurki, hatto, oddiy xalq tilida qahramonlar ismi sevishganlar ramzi sifatida ishlatiladi. Pyesa yoshlarga hayot o‘yinlariga berilib ketmaslikni, shoshilmaslikni, mulohazakor bo‘lishni o‘rgatsa, o‘z o‘rnida ota-onalarni biroz sergak torttirib, o‘z farzandlariga jiddiy e’tibor berish, ularni o‘rganish va tushunishga chorlaydi.

Har bir davrda yaratilgan asar o‘sha davr, zamonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarini ko‘tarib chiqadi. Klassik

[1] Tursunov T. XX asr O‘zbek teatri tarixi. Darslik – monografiya. – Toshkent:Art Press Co. Ltd., 2010.– 494-b.

asarlar esa nafaqat o‘zi yaratilgan davr, balki barcha davrlar uchun muhim va zarur masalalarni o‘zida ja’m qiladi. Bu borada Shekspir asarlari har bir zamonda o‘sha davr ehtiyoji va muammolarini yangi qirralarini kashf etishi bilan qiymatli. Jumladan, “Romeo va Julyetta” asari ham juda ko‘p talqinlarda turli-tuman g‘oyalarni olib chiqdi. Bugungi kunda diniy, siyosiy urushlar ketayotgan bir paytda, ilgari do‘st bo‘lib yashagan qardosh millatlar nafs uchun, yer, boylik uchun kurashayotgan davrda “Romeo va Julyetta” asari o‘zbek sahnasida adovat va nizoga qarshi g‘oya sifatida jarangladi.

Tragediya 2021-yilda ikki teatrda ketma-ket sahnalashtirildi. Ya’ni, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida Amangeldi Kudaynazarov tomonidan va O‘zbek davlat drama teatrida Olimjon Salimov tomonidan sahnaga olib chiqildi.

Qoraqalpoq teatri uchun bu haqiqiy yangilik edi. Deyarli yarim asr davomida murojaat etilmagan Shekspir tragediyalariga qo‘l urildi. Asar shoir va yozuvchi, tarjimon Uzaqbay Pirjanov tomonidan qoraqapoq tiliga tarjima qilindi. Garchi qoraqalpoq tilida yangrasa-da, spektakl italyan muhitini, Shekspir ruhiyatini har bir obraz, har bir sahna, har bir ohang, musiqa va raqslarda bera olgan. Ya’ni, badiiy yaxlitlikka erishilgan. Aktyorlar ijrosida fojiaviylik ochilgan. Vaholanki, tragik holatlarni ochib berish uchun aktyorda mahorat va bilim bilan birga, o‘tkir hissiy kechinma va katta zahira – tajriba maktabi kerak. Ijroni tabiiy, oddiy, sodda, ta’sirli, jonli deyish mumkin. Rejissyor o‘z talqinida ishq masalasi, uning yo‘lidagi to‘siqlarni ko‘rsatishga urg‘u bergan.

14-15 yosh insonda o‘tish davri, bolalikdan kattalikka qadam qo‘yish bosqichi hisoblangani uchun o‘smirda hissiy-gormonal o‘zgarishlar kechayotgan, kuch-quvvatga to‘la davri hisoblanadi. Asarda yoshlarning qoni qaynoq, hislari esa o‘zgaruvchan ana shunday nozik davrini ko‘rish mumkin. Buni Romeo misolida yaqqol ko‘ramiz. Romeo Rozalinani shu darajada sevar ediki, har tong o‘rmonda bir o‘zi yig‘lab yurar, xonasida qorong‘ulik va yolg‘izlikda o‘tirishni ixtiyor etardi. U sevgisi rad etilgan bo‘lsa-da, Rozalinani ko‘rish uchun dushmanining uyiga, bazmga bordi. U yerda Julyettani bir ko‘rishdayoq sevib qoldi va eski muhabbatini bir zumda unutdi. Romeo – Rasul Tilemisov ana shu yoshlik sho‘xliklaridan jiddiy muhabbat va nikoh qurish xususidagi mas’uliyatli qarorgacha bo‘lgan hissiy o‘zgarishlarni zohiriy va botiniy kechinma jarayonlarini quvnoqlik va bosiqlik bilan parallel ravishda, har bir voqea bilan uyg‘un holda ochib bergan. Xuddi shuningdek, Julyetta – Inkar Sarsenbayevada ham sho‘xlik bilan jiddiylik noziklik ila talqin etilgan. Julyettani shunchaki yosh qizaloq sifatida emas, balki uning balog‘atli dard hamda iztirobli kechinmalarini aktrisa moxirona namoyish qilgan. Romeoni Rasul Tilemisov ijrosida biroz bosiq, jiddiy, dovyurak yosh yigit sifatidagi talqini ayni Julyetta – Inkar Sarsenbayeva ijrosiga mos. Ikki yosh qahramon ham ancha mulohazali. Ya’ni, aktyorlarning tajribasi, yoshi, ularga ijroda diqqatni nimaga qaratishni, qanday yondoshishni ko‘rsatgan holda, Romeo va Julyettani ruhiy tomondan anchayin ulg‘aygan qahramonlar sifatida tasvirlashga zamin bo‘lgan. Shu bilan birga, Romeo va uning do‘stlarida yoshlik quvvati, jo‘shqinlik, shaddodlik, qiziqqonlik, g‘ayratlilik ufurib turadi.

Rejissyor har bir sahna, har bir voqea uchun mos, aktyorlar ijrosini yanada quvvatlantiruvchi, sahna harakatlariga

bezak beruvchi musiqalarni tanlagan va to‘g‘ri foydalangan. Asardan eng kerakli, voqealar zanjirini to‘g‘ri joylashtiruvchi sahnalarni, dialoglarni tanlab olishi, rejissyorning mahoratidan darak beradi. Rejissyor A.Kudayberganov ko‘p sahnalarda bugungi zamon talabi bo‘lgan ortiqcha dialoglardan, bayonlardan, finalda ta’sirchan berilgan so‘zlardan voz kechdi va aktyorlar xatti-harakati orqali o‘zgacha yechim berdi. Bu talqin o‘zini oqladi. Masalan, bazm sahnasidagi Tibaltning noroziligi, enagani kutish sahnasi, final sahnasidagi uzun dialog va monologlar o‘rniga xatti-harakat berilgan. Tomoshabin ortiqcha so‘zlarsiz mizansahna, bir-biriga munosabatdan yakunni tushunadi.

“Rejissyorning yutug‘i spektakl boshi va oxirida sahna bichimlaridan o‘z o‘rnida foydalana olgan va boshqacha yondashuv bilan asarni yakunlaganligi”[2]. Ayni final sahnasida noodatiy, innovatsion yechimni ko‘rish mumkin. Ikki yosh vafot etadi. Ularga oq libosli ikki farishta yo‘l ko‘rsatadi. Romeo va Jyuletta qo‘l ushlagan holda ortida yig‘lab qolayotgan o‘z yaqinlariga bir qarab qo‘yisharkan, farishtalar ko‘rsatayotgan yo‘l tomon ketadilar. Ortlarida esa ilgari dushman maqomida bo‘lgan ota-onalari bir-birlarini quchoqlagancha afsus chekib qoladilar. Ushbu sahna nur o‘yinlari, qayg‘uli va yuqori ritmli musiqa orqali yanada ta’siri kuchaytirilgan. Rejissyorning finaldagi talqini butun insoniyatga qaratiladi: “Insonlar ogoh bo‘linglar, hudbinlik nima bilan tugashini ko‘ring”, degan g‘oya o‘rtaga tashlandi.

“To‘qnashuv dialektik ravishda, kurashning keskinlashib borishi evaziga shiddatli tus olmasa, xarakterlar intilishi rivojini tomoshabin his qilmasa, tomosha tezda zerikarli bo‘lib qoladi. Demak, xarakterning badiiy yaxlitligi, rolning o‘z yechimiga mantiqan va izchil intilishiga zamin yaratadi”[3]. Shu ma’noda spektaklda xarakter rivoji finalga kelib, biroz sekinlashgandek his uyg‘otadi. Aristotel ham bu borada “Tragediyada — bizdan yaxshiroq, dramada — bizdek”[4], deb bejiz ta’rif qilmagan. Tragediya keskin to‘qnashuv, keskin rivoj talab qiladi va shu bilan birga ziddiyat qahramon xarakterini teranlashtiradi. Qoraqalpoq teatri talqinida keskin rivoj, kulminatsiya biroz past tempda, bir tonda ko‘rsatilgan bo‘lsa, O‘zbek davlat drama teatrida buning aksini, keskinlikni, tezkorlikni ko‘rish mumkin. Olimjon Salimov aktyorlar holati, harakati orqali zarur sahnalarda yuqori temp berib, finaldagi eng tragik holatgacha to‘g‘ri yo‘l ochgan. Spektaklda yaxlit holdagi kulgu, xursandchilikdan fojiagacha bosqichma-bosqich o‘tilganini aktyor ijrosidagi to‘g‘ri yo‘naltirilgan ovoz, tezlik, quvvat oshib borishi, musiqaning o‘zgarib borishi, hatto yorug‘likdan sezish mumkin. Asosiy qahramonlar Romeo va Julyettaning iztirobi, hissiyotlarining bari ochiqchasiga, norozilik ham, jo‘shqin muhabbat hislari ham ravshan ko‘rinadi. Julyetta – Gulrux Pirnazarova ijrosida sho‘xlik, ta’sirchanlik, kuchli hissiyot, dadillik, ishonch, obrazga yengil yondashuv bilan ko‘rinadi. Romeo – Begzod Zokirjonovda qiziqqon, sho‘x va quvvatli, hissiyoti jo‘shqin yosh yigitni ko‘rish mumkin. Jamoa spektaklni bir to‘lqinda, bir ohangda ijro etishgan. Olimjon Salimov ushbu spektakl orqali

[2] Xojanov J. Romeo va Juletta Qoraqalpog‘istonda. // “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal. Volume 5. Issue 2/April 2024. – B. 311.

[3] Umarov M., Yo‘ldoshev T. Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari. – T.: O‘zDSMI, 2018. – 294-b.

[4] Aristotel. Poetika. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 9-b.

nizo falokatga olib kelishi haqidagi g‘oyani ilgari surgan.

Drama teatri talqini haqida Hayriddin Sulton shunday yozadi: “Romeo va Julyetta” spektakli ... Uchinchi Renessans yo‘lidagi yangi bir qadam bo‘ldi, desak, inshoolloh, yanglishmasmiz”[5].

Asosiy g‘oyani qoraqalpoq teatrida bek obrazi olib chiqqan bo‘lsa, drama teatrida bu vazifani bajarishda masxarabozdan foydalanildi. G‘oya ortidagi butun xalqning og‘rig‘ini esa Merkutsioning “Vabo tushsin xonalaringga!”, degan so‘zlari bilan Azamat Hazratqulov talqin qiladi. Rejissyor butun bir spektaklning g‘oyasini ana shu sahnaga yuklaydi. Aktyor Merkutsioning dardli ohangdagi: “O‘t tushsin har ikkingizni xonadoningizga”, “Vabo olsin xonadonlaringni”, deya qayta-qayta la’natlashlarida ikki oila xusumati sababidagi barcha qurbonlarning hayqirig‘i ifodalanadi. Bu ta’sirli sahna qiziqqon yoshlarning o‘ylamay qilgan xatti-harakatlarini ifodalash bilan birga, katta yoshlilarning tafakkursiz adovatu nifoqlarining falokatli natijasini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Merkutsio – Azamat Hazratqulov va Benvolio – Sirojiddin Sattorovlar Romeo – Begzod Zokirjonov bilan bir kuchda, bir tezlik, bir tempda katta zavq bilan ijro etishgani ko‘rinadi. Barcha aktyorlarda tetiklik, katta ichki quvvat sezilib turadi. Xuddi shu fikrni Qoraqalpoq teatri yosh aktyorlariga nisbatan ham aytish mumkin. Bu yosh aktyorlarda Shekspir davri yoshlari yuksak ruhiyatini his qilish mumkin. Ikki jamoa ham Shekspirning mashhur tragediyasi uchun butun borlig‘ini, bor kuchini, qalbini bergani ijroda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu tufayli ikki teatr spektakli ham tomoshabin qalbini jumbushga keltiruvchi, uni katarsis holatiga olib keluvchi muvaffaqiyatli ijod mahsuli bo‘lgan, deyish mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, ikkala spektakl ham zamonaviy o‘zbek teatrining klassik dramaturgik merosga qaytish va aktyorlik mahoratiga qo‘yiladigan talablarni oshirish borasidagi barqaror tendensiyasini namoyish etadi. Ikkinchidan, milliy sahna an’analari va til farqiga (qoraqalpoq va o‘zbek) qaramay, ikkala talqin ham asarning badiiy yaxlitligini hamda yosh qahramonlar obrazining o‘smirlik tuyg‘usidan balog‘at davridagi fojiaviy yetuklikka o‘tishidagi psixologik ishonarlilikni saqlab qola olgan. Uchinchidan, final sahnalarining temporitmik yechimidagi farq tragediya janri tabiatini ifodalashning ikkita mustaqil, badiiy jihatdan asoslangan yondashuvidan dalolat beradi.

Aynan shu bilan qoraqalpoq va o‘zbek talqinlari o‘rtasidagi farqlarning qonuniyati izohlanadi — ularning har biri klassik matnni bugungi tomoshabin uchun sahnaviy jihatdan ishonarli qilish vazifasini o‘ziga xos tarzda hal etadi.

O‘zbek teatrida Shekspir merosining zamonaviy talqinlarini yanada chuqur o'rganish milliy va jahon dramaturgik an’analari o‘zaro ta’sirini qiyosiy teatrshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

[5] Sulton X. Qish ichra bahor // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2022.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Aristotel. Poetika. — Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. — 9 b.

Belsey C. Romeo and Juliet: Language and Writing. — London: Bloomsbury Arden Shakespeare, 2014. — 224 p.

Bradley A.C. Shakespearean Tragedy. — London: Macmillan, 1904. — 498 p.

Ignat A.-D. Romeo and Juliet, from Page to Stage and Back: A Hands-On Perspective on Functionalism in Drama Translation // American, British and Canadian Studies. — 2023. — Vol. 40. — P. 18-41.

Sulton X. Qish ichra bahor // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. — Toshkent, 2022.

Tursunov T. XX asr O‘zbek teatri tarixi: darslik-monografiya. — Toshkent: Art Press Co. Ltd., 2010. — 494 b.

Umarov M., Yo‘ldoshev T. Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari. — Toshkent: O'zDSMI, 2018. — 294 b.

Xojanov J. Romeo va Juletta Qoraqalpog‘istonda // Oriental Art and Culture: Scientific Methodical Journal. — 2024. — Vol. 5, Issue 2. — B. 311.

Worthen W.B. Shakespeare and the Force of Modern Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 245 p.